



XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni (2022 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.


Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2022 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati bilan)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha
2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, 2021- yil yanvar- dekabr oylarida)

birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2022 yil 1 yanvar xolatiga, birlikda)





Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)


Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **12,0** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish
■ O‘rmon xo‘jaligi
■ Baliqchilik xo‘jaligi





Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy ta‘rifi

Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat
ko‘rsatayotgan sanoat
korxonalar va
tashkilotlarning umumiy
soni o‘tgan yilning shu
davriga nisbatan **10,0**
foizga oshdi



175



Tog‘-kon sanoati va ochiq
konlarni ishlash

2 942



Ishlab chiqarish sanoati

36



Elektr, gaz, bug‘ bilan
ta‘minlash va havoni
konditsiyalash

58



Suv bilan ta‘minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish va
utilizatsiya qilish


2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 211 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,0 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko‘payishining asosiy omili (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 10,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,6 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 34,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) o‘sishi kuzatildi va tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 96,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,5 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 94,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) tashkil etdi.


*Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy ta‘rifi*

Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida




2022- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 405 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o‘tgan yilga nisbatan 2,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,9 %), fuqarolik obyektlarini qurish 20,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 10,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 9,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,6 %) tashkil etdi.

**Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**


(2022 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




**Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida**

(2022 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

2022- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 6 359 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilga nisbatan 12,7 % ga (jami savdodagi ulushi 70,5 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilga nisbatan 12,3 % ga (jami savdodagi ulushi 21,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlashning o‘tgan yilga nisbatan - 12,4 % ga (jami savdodagi ulushi 8,3 %) o‘shidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta‘mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

• Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat

405



• Yashash uchun joy bilan ta‘minlangan holda parvarishlash

27




• Yashash uchun joy bilan ta‘minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish


10




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




2022-yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 368 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar 5,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,7 %), yashash bo‘yicha xizmatlarning 13,6% ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,3 %) o‘shidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(2022 yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra 2 050 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 349 ga yoki 20,5 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 932 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 330 ga yoki 20,5 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 495 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 75,9 % ga tashkil etdi.


Mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2022 yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra 15 361 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 977 ga yoki 14,8 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 683 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 677 taga yoki 12,9 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 407 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 182 taga yoki 5,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxon va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxon va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 170 tani tashkil etib, ulardan 169 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 ta yoki 9,4 % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 21 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxon va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2022 yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo‘shma korxonaga	xorijiy korxonaga
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	169	104	65
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	5	1	4
Beruniy	10	5	5
Bo‘zatov	5	5	
Qorao‘zak	10	7	3
Kegeyli	6	5	1
Qo‘ng‘irot	9	7	2
Qonliko‘l	6	3	3
Mo‘ynoq	34	24	10
Nukus	10	5	5
Taxiatosh	8	3	5
Taxtako‘pir	3	2	1
To‘rtko‘l	5	4	1
Xo‘jayli	3	1	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	4	2	2
Ellikqal‘a	5	4	1
Nukus sh.	42	23	19

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Nukus shahrida 42 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 24,9 %), Mo‘ynoq 34 ta (20,1 %), Beruniy, Qorao‘zak va Nukus tumanlarida 10 ta (5,9%), Qo‘ng‘irot 9 ta (5,3 %), Taxiatosh 8 ta (4,7 %), Kegeyli va Qonliko‘l tumanlarida 6 tani (3,6 %) tashkil etadi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

(2022- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,2 %), To‘rtko‘l (9,8 %), Beruniy (8,4 %), Amudaryo (7,5 %), Ellikqal‘a (6,1 %), Qo‘ng‘irot (5,8 %), Xo‘jayli (5,3 %), Nukus (4,3 %), Chimboy (4,1 %), Taxiato‘sh (3,0 %), Kegeyli (3,2 %), Qorao‘zak va Mo‘ynoqda (2,8 %), Qonliko‘l (2,7 %), Shumanay tumanlarida (2,6 %), Taxtakopir (1,8 %) va Bo‘zatov (1,6%) tumanlari hissalari to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni


(2021 yil yanvar- dekabr oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (24,3 %), To‘rtko‘l (7,8 %), Beruniyda (9,0 %), Amudaryo (7,0 %), Ellikqal‘a (6,4 %), Xo‘jayli (6,5%), Qo‘ng‘irot (4,9%), Chimboy (4,2 %), Nukus (4,0 %), Mo‘ynoqda (4,2 %), Kegeyli (5,0 %), Qonliko‘l (3,1 %), Taxiato‘sh (3,2 %), Shumanay (2,9 %), Qorao‘zak (2,5 %), Bo‘zatov (2,7 %), Taxtakopir (2,3 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



2022- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,1 %), To‘rtko‘l (10,1 %), Beruniy (7,1 %), Amudaryo tumani (6,8 %), Xo‘jaylida (5,5 %), Nukus (5,1 %) va Qo‘ng‘irot (5,3 %), Ellikqal‘a (4,3 %), Chimboy (4,2 %), Qorao‘zak (2,9 %), Mo‘ynoq (3,0 %), Kegeylida (3,6 %), Taxiatosh tumani (2,4 %), Bo‘zatov (1,9 %), Shumanay (1,8 %), Qonliko‘l (1,8 %), Taxtako‘pir (1,1%) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.